

KITOB O'QISHNING FOYDALI TOMONLARI

O'KTAMOVA NILUFARXON NODIRJON QIZI

ANNOTATSIYA: Ushbu tezisda kitobning yaratilish tarixi, kitob motolaasi va uning foydali tomonlari haqida ma'lumotlar mavjud kitob o'qishning psixologik, intellektual va ijtimoiy foydalari tahlil qilinadi. Kitob o'qishning insonning shaxsiy rivojlanishiga, bilim olishga, dunyoqarashni kengaytirishga va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga qanday ta'sir ko'rsatishi ko'rsatiladi. Tadqiqotda kitoblarning turli janrlari, o'qishning ta'siri, o'qishning ijtimoiy va madaniy hayotga qo'shadigan hissi haqida yangi ilmiy ma'lumotlar va tadqiqotlar keltirilgan. Kitob o'qishning ahamiyati nafaqat bilim olishda, balki insonning psixologik va axloqiy rivojlanishida ham alohida o'rin tutadi

KALIT SO'ZLAR: kitobxonlik, kutubxona, tashabbus, kitobxonlar bayrami, yosh kitobxon, intellekt, donishmandlar, ma'rifat, qadriyatlar, mutolaa, madaniyat.

KIRISH. Kitob o'qish insoniyatning eng qadimiy va samarali bilim olish usullaridan biridir. O'quv jarayonida o'qilgan kitoblar orqali insonning fikrlash darajasi oshadi, yangi g'oyalar va bilimlar bilan tanishadi, dunyoqarashi kengayadi. Kitob o'qish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki ijtimoiy munosabatlarning mustahkamlanishiga ham yordam beradi. Shu bilan birga, kitob o'qishning dunyodagi statistik ko'rsatkichlari va uning ahamiyati haqida yangi ilmiy faktlar ham mavjud, Odamning ulug'vorligi uning bo'yi bilan o'lchanmaganidek, xalqning ulug'ligi ham, uning soni bilan o'lchanmaydi, yagona o'lchovi uning aqliy kamoloti va axloqiy barkamolligidir'' (GYUGO).

Demak biz qanchalik ko'p kitob o'qisak, kelajak kasbimizga shunchalik ko'p foydasi tegar ekan. Farzand tarbiyasidagi eng asosiy omillardan biri bu kitob mutolaasidir. "Kitob ", "kitobxonlik ", "kutubxona " so'zlarining o'zagi aslida arabchadan olingan va bir maqsadga, ya'ni inson manaviyatini boyitishga xizmat qiladi. Yurtimizda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish uchun amalga

oshirilayotgan islohotlar ham bejizga emas. Kelajak avlodning kamoloti ilm olish, bilimli bo'lish bilan belgilanadi. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017 -yilning 12-yanvar kuni "kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan farmoyish e'lon qildi. Bu esa o'z navbatida, yurtimizda kitobxonlik saviyasi oshishiga, yangidan yangi sarmazmun kitoblar chop etilishiga omil bo'luvchi muhim hisoblanadi. 2020-2025- yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2- martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini" Ilm "ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" da amalga oshirishga oid

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kitob o'qishning foydalari haqida bir nechta ilmiy tadqiqotlar va faktlar mavjud. Kitob o'qishning insonning intellektual, psixologik va ijtimoiy salohiyatiga qanday ta'sir ko'rsatishini quyidagi statistik ma'lumotlar yordamida tahlil qilish mumkin: Intellektual foyda: Kitob o'qish aqliy salohiyatni oshirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kitob o'qish miyani faollashtiradi, yangi bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi va xotira qobiliyatini kuchaytiradi. Yangi bilimlar olish: Kitoblar orqali inson turli fanlar haqida yangi ma'lumotlarga ega bo'ladi, shu bilan birga yangi dunyoqarashni shakllantiradi. Muammolarni hal qilish: Kitoblar insonni muammolarga turlicha qarashga va ularga yechim topishga o'rgatadi. Psixologik foyda: Kitob o'qish stressni kamaytirish va ruhiy holatni yaxshilashga yordam beradi. Psixologlar kitob o'qishni depressiya va bezovtalikni engishning samarali usuli sifatida tavsiya etishadi. Emotsional barqarorlik: Kitoblar o'qish orqali inson turli xarakterdagi qahramonlarning holatini o'rganadi, bu esa o'z his-tuyg'ularini anglashda yordam beradi. Empatiya rivoji: O'qish orqali boshqalar bilan hamdardlik qilish, ularning hissiyotlarini tushunish va o'zaro munosabatlarda yaxshilik ko'rsatish osonlashadi. Ijtimoiy foyda: Kitob o'qish ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi. Kitoblar orqali inson turli ijtimoiy guruhlar va madaniyatlar bilan tanishadi, bu esa insonni ko'proq bag'rikeng va ochiq

fikrli qiladi. Madaniy rivojlanish: Kitob o'qish insonni kengroq madaniyat bilan tanishtiradi, dunyoqarashini boyitadi. Kompleks muammolarga yondashuv: Kitoblar orqali odamlar muammolarga kompleks yondashishga o'rganadilar. Statistik ma'lumotlar: Dunyo bo'yicha kitob o'qish va unga ajratiladigan vaqtning o'zgarishi ko'rsatilgan ba'zi statistik ma'lumotlar: Yaponiyada: Kitob o'qishning o'rtacha vaqti yiliga 10-12 soatni tashkil etadi, bu esa Yaponiyaning o'qishga bo'lgan qiziqishini ko'rsatadi. Fransiya: Fransuzlar haftasiga o'rtacha 6 soat vaqtни kitob o'qishga ajratadi, bu esa ularning madaniyatida kitoblarning katta o'rni borligini tasdiqlaydi. AQSh: Amerikaning 30 foizdan ortiq aholisi yiliga 12 yoki undan ko'p kitob o'qishini bildirgan. Angliya: Angliyada kitob o'qishning o'rtacha vaqti haftasiga 5 soatni tashkil etadi. 2023-yilgi so'rovda 45% aholi kitob o'qishning o'tkir muhimligini ta'kidladi. Rossiya: Rossiyada esa kitob o'qishga ajratiladigan vaqt o'rtacha 5-7 soatni tashkil qiladi, bunda yoshlar va o'rta yoshdagi shaxslar ko'proq kitob o'qishadi. Bu statistikalar kitob o'qishning dunyo bo'ylab ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ko'rsatadi. Har bir mamlakatda kitob o'qishning o'ziga xos madaniyati va urf-odatları mavjud bo'lsa-da, umuman olganda, kitob o'qishning shaxsiy va ijtimoiy foydalari keng qamrovli hisoblanadi. Ana shunday imkoniyatlardan oqilona foydalanib, yangidan yangi nashrdan chiqayotgan sarmazmun asarlarni o'qib borish yoshlarning ongi o'sishi, tafakkuri teranlashib, o'zining mustaqil fikriga ega bo'lishiga imkon beradi. Kitob bilan tanishish, uni mutolaa qilish, insonga o'zgacha zavq beradi. Kitobxon mutolaa qilar ekan kitob bilan yaqinroq tanishadi, uning ilmiy-badiiy qimmatı haqida tasavvur hosil qila boshlaydi, mutolaa madaniyati yuksaladi. Prezidentimizning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilayotgan alohida e'tibori tufayli umumta'lim maktablarida, oliy o'quv yurtlarida o'tkazilayotgan "Yosh kitobxon", "Kitobxonlar bayrami" ko'rik tanlovlari va turli joylarda ko'plab kutubxonalar yosh avlodni manaviy va intellektual ehtiyojini qondirishda, kitobga oshno bo'lishda muhim o'rin tutmoqda. Kitob mutolaasi insonni bevosita amaliyotga kirishish, hayot bilan uyg'unlashish, manaviy foyda olishga yo'naltiradi. "Mutolaa" so'zi arabcha o'qish degan ma'noni anglatadi. Kitob o'qigan insonning boshqalarga nisbatan fikrlash

doirasi, dunyoqarashi keng bo'ladi. Xalqimiz tilida kitob o'qib bilim va munosib tarbiya olishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, 'Kitobsiz aql-qanotsiz qush', 'Bilim -aql chirog'i', 'Go'zallik-ilm-u ma'rifatda'. Qadimdan insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyali va baxtli bo'lishining muhim omili-bu kitobga do'st bo'lish va kitob o'qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. Donishmandlardan biriga: "Inson kitob o'qish orqali saodatga erishishi mumkinmi?" deb savol berishganda u: "Kitob o'qishning o'zi saodatdir," deya javob bergan ekan. Buyuk shoir va mutafakkir A.Navoiy hazratlari yozganidek, "Kitob-beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbayi "Mutolaa miya faoliyatini yaxshilaydi, insonni go'zallashtiradi, asabni tinchlantiradi, stressni kamaytirish, uzoqroq yashash ,xotirani diqqatni kuchaytirishga va so'z boyligini oshirishga yordam beradi. Bu olimlar tomonidan o'z isbotini topgan. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, o'spirin o'quvchilar o'z adabiyotlarini to'g'ri tanlaganlarida, ular yaxshi o'qiydigan bo'ladi. Xulosa qilib aytganda qariyalar, o'rta yoshlilar, yoshlar va hatto bolalar ham. Hamma gap kitob tanlashda. Kitoblarning tanlanishi odamning fikr dunyosini, uning hayotiy qadriyatlarini ochib beradi. Mening fikrimcha bolalarga o'zlarining dunyoqarashi va yoshiga mos kitoblar tanlab berishimiz kerak. Shunda ularda kitobga bo'lgan muhabbat uyg'onadi va shuningdek kitobxonlik yutuqli tanlovlariniko'paytirish taklifini bergan bo'lar edim. Chunki bolalar beriladigan sovrinlarga qiziqib ham yanada ko'proq kitoblar o'qishadi.

Natijalar: Kitob o'qish, insonning intellektual va psixologik salohiyatini oshirishda, shuningdek, uning ijtimoiy va madaniy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoning ko'plab mamlakatlarida odamlar kitob o'qishga ma'lum vaqt ajratadilar va bu jarayon jamiyatda umumiy rivojlanish va madaniy o'sishning ko'rsatkichidir suhbatlashdi. **O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi O'quv-metodika va harbiy vatanparvarlik bo'limi boshlig'i**

Ma'mura Zohidova bilan Kitob nashr etish va tarqatish hamma mamlakatda ham qat'iy tartibga solinmagan, – deydi Ma'mura Zohidova. – Turli mavzu va maqsadda kitob bitadiganlar, uni nashr etib tarqatuvchilar juda ko'p. Ayniqsa, badiiy kitoblar borasida qat'iy cheklovlarni bundan keyin ham belgilab bo'lmaydi, iloji ham yo'q. Kitobga ehtiyojning borligidan quvonadigan davrdamiz. Shunday vaqtda bu qarorning e'lon qilingani ayni muddao bo'ldi. Kitob mutolaasi deganda, odatda, biz badiiy kitoblar o'qishni anglaymiz.

Ushbu loyiha esa o'z oldiga yoshlarning intellektual va ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qilishni maqsad qilgan. U zamonaviy ilm-fanning so'nggi yutuqlari bilan yoshlarni tanishtirib borishni ko'zda tutadi. Mingta kitob, albatta, birdaniga tarjima qilinib, chop etilmaydi, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ekspertlarga tayanib ish ko'rilishi juda to'g'ri qaror. Aholi takliflari ustida esa, albatta, ishlash kerak deb o'ylayman. Ya'ni aholi fikrini o'rganishdan avval loyiha mohiyati va maqsadini chuqur anglatish lozim. Yozuvchilar uyushmasida ham amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami keng. Bizda badiiy kitoblar, shu bilan birga, tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid eng nodir asarlar chop etiladi. Orasida mumtoz asarlar ham, tarjima asarlar ham, ustoz va zamondosh ijodkorlar qalamiga mansub asarlar ham, qardosh tillardagi kitoblar ham mavjud. Bilamizki, badiiy kitoblarga ehtiyoj katta. Shu yilning o'zida “Adib va jamiyat”, “Nazm bo'stoni”, “Tanlangan asarlar”, “Nasr gulshani”, “Adabiy meros”, “Birinchi kitobim” va boshqa loyihalarda jami 50 nomda, 220 ming nusxada kitob chop etildi.

O'tgan 2022 yil yakunlariga ko'ra esa, “Adib va jamiyat”, “Nazm bo'stoni”, “Tanlangan asarlar”, “Nasr gulshani”, “Adabiy meros”, “Birinchi kitobim” va boshqa loyihalarda jami 150 nomda, 388 ming 800 nusxada kitob chop etildi. Kitoblarimiz kitobxonlarga yetib borishi uchun kutubxonalar, madaniyat uylariga tarqatiladi.

Tanlov va tadbirlar esa turli yoshdagi ijodkorlarni birlashtirib kelmoqda. Yaqinda hamkor tashkilotlar va soha mutaxassislari bilan birgalikda “Turkiy adabiyot durdonalari” 100 tomliqi nashr etildi.

Hozirda esa “O'zbekiston adiblari” to'plami hamda o'zbek adabiyoti 300 tomliqi ustida ish olib borilmoqda.

Kitobxonlik targ'ibotiga doir loyihalar, ezgu tashabbuslar amalga oshirilayotgani quvonarli. Ular, shubhasiz, o'z mevasini beradi.

Munozara bo'limi Kitob o'qishning ahamiyati haqida turli nuqtai nazarlar mavjud. Ba'zi mutaxassislar kitob o'qishning an'anaviy metodlarni ustun qo'yishini ta'kidlashadi, boshqalar esa yangi texnologiyalar, elektron kitoblar va audiokitoblar singari zamonaviy yondashuvlarni qo'llashning foydalarini ko'rsatadilar. Biroq, ilmiy tadqiqotlar ko'rsatadiki, kitob o'qish har qanday shaklda inson uchun foydali bo'lib qoladi, ayniqsa, badiiy kitoblar shaxsiy rivojlanishga katta hissa qo'shadi. Shuningdek, yangi texnologiyalar kitob o'qishning ta'sirini yanada kuchaytirishi mumkin, masalan, interaktiv kitoblar yoki raqamli platformalar orqali o'qish.

Xulosa va takliflar: Kitob o'qishning foydalari kengdir va uning insonning aqliy, ruhiy va ijtimoiy salohiyatiga ta'siri katta. Dunyo bo'yicha kitob o'qishning o'rtacha vaqti va ahamiyati ortib bormoqda. Statistik ma'lumotlar kitob o'qishning foydalari to'g'risidagi ilmiy tadqiqotlarning ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, o'qish jarayonini yanada rivojlantirish va kengaytirish zarur, ayniqsa, zamonaviy texnologiyalarni hisobga olgan holda. Kitob o'qish madaniyatini rivojlantirish: O'quvchilarga kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish va uni turli shakllarda, jumladan, audiokitoblar va elektron kitoblar orqali rivojlantirish zarur

2. Ta'lim tizimida o'qishning ahamiyatini oshirish: Ta'lim muassasalarida o'quvchilarga kitob o'qishning ijtimoiy va psixologik foydalarini tushuntirish va o'qish madaniyatini targ'ib qilish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish.

3. O'qish klub va faoliyatlarini tashkil etish: O'quvchilarga, yoshlar va kattalar uchun kitob o'qish klublarini tashkil etish, shuningdek, kitob o'qishga mehr qo'yish va bu borada ijtimoiy tarmoqlarda ham ko'proq ma'lumot berish.

4. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash: Kitoblarni raqamli formatda va interaktiv shaklda taqdim etish, bu orqali kitob o'qishni osonlashtirish va yanada qiziqarli qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. @ilmfakt.com. Ta'limiy materiallar va qiziqarli faktlar. 1. Krashen, S. (2004). The Power of Reading: Insights from the Research. Libraries Unlimited. 2.

2. Cunningham, A. E., & Stanovich, K. E. (1998). What Reading Does for the Mind. American Educator.
3. Wolf, M. (2008). Proust and the Squid: The Story and Science of the Reading Brain. HarperCollins.
4. Ladson-Billings, G. (1994). The Dreamkeepers: Successful Teachers of African American Children. Jossey-Bass.
5. Nicholas, M. (2011). Reading for Pleasure: A Lifelong Activity. Oxford University Press.
6. You Can Do About It. Stenhouse Publishers. World Culture & Social Trends Report (2020). Global Reading Habits.
7. Ramazonovich, K. S. (2023). BASKETBOLCHILAR JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA JISMONIY VOSITA SIFATIDA HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ,
8. Ramazonova, M. S. (2023). BADMINTON: HISTORY OF ORIGIN, DEVELOPMENT STAGES, TYPES, GAME RULES. Scientific Impulse, 1(9), 837-843.
9. Orlova, K. V., Fedyanin, M. Y., Simanenkova, K. E., Dergunov, A. S., Goldshmidt, P. R., Saydullaeva, A. F., ... & Demidov, L. V. (2022). Real-world efficacy of the first line therapy with prolglomab in patients with metastatic melanoma: interim results of the FORA (FORteca Real practice Assessment) observational study. Journal of Modern Oncology, 24(4), 413-425.
10. Ramazonova, M. S. (2023). VOLEYBOL SPORT TURINI O'RGATISH VA UNING MOHIYATI. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 881-886.
11. Ramazonova Mohichehra Sodiq qizi "O'quv qollanma " Jismoniy tarbiya va sport ", Buxara Durdona nashryoti.
12. Azizxo'jayeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" T. 2006.B. Ziyamammedov, M.Tojiyev "Pedagogik texnologiyalar zamonaviy o'zbek milliy modeli".Zagvyazinkiy VI O'qitish nazariyasi: Zamonaviy talqin. – M.: Akademiya, 2001. – 192b.